

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.04/30.04.2021.T.111.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**TOJIBOYEV SUHROBXON JA'FAR O'G'LI**

**GIDROTEXNIK INSHOOTLAR ZATVORLARIDAN O'TAYOTGAN SUV  
HISOBINI RAQAMLASHTIRISH**

**05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2023**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) and  
technical sciences**

**Tojiboyev Suhrobxon Ja’far o‘g‘li**

Gidrotexnik inshootlar zatvorlaridan o‘tayotgan suv hisobini  
raqamlashtirish.....

3

**Тожибоев Сухробхон Жаъфар угли**

Цифровизация учёта воды, проходящей через затворы гидротехнических  
сооружений.....

21

**Tojiboev Suhrobkhon Ja’far ugli**

Digitization of accounting for water passing through the gates of hydraulic  
structures.....

41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....

45

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.04/30.04.2021.T.111.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**TOJIBOYEV SUHROBXON JA'FAR O'G'LI**

**GIDROTEXNIK INSHOOTLAR ZATVORLARIDAN O'TAYOTGAN SUV  
HISOBINI RAQAMLASHTIRISH**

**05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2023**

**Texnika fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/T2161 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.qmii.uz](http://www.qmii.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Arifjanov Aybek Muxamedjanovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Sadiyev Umidjon Abdusamadovich**  
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

**Fayziyev Xomitxon**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan muhandislik - qurilish instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/30.04.2021.T.111.04 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik ko‘chasi, 225-uy. Tel: (+99875)-221-09-23, e-mail: [qmii@qmii.uz](mailto:qmii@qmii.uz)).

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik shoh ko‘chasi, 225-uy. Tel: (+99875)-221-09-23.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023 yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.S.Eshev**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**A.N.Xazratov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
t.f.f.d., dotsent

**R.Xo‘jaqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda soʻnggi vaqtlarda suv va energiya resurslaridan samarali foydalanish maqsadida ularning miqdorini nazorat qilish va sohani raqamlashtirishda zamonaviy texnik vositalarni yaratish hamda takomillashtirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Alohida sugʻorish tarmoqlarida suv sathi va sarfini oʻlchashda texnologik jarayonlarga qoʻyiladigan talablarga javob beruvchi raqamli datchiklarni yaratish muhim muammolardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan sugʻorish tarmoqlarida va gidrouzollarda suv sathi va sarfini nazorat qilish va oʻlchash uchun koʻp funksiyali innovatsion qurilmalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda gidrotexnik inshootlarni boshqarishni raqamlashtirish va nazorat qilishda texnik vositalarning tannarxini pasaytirish, ularning texnik xarakteristikalarini yaxshilash, suv va energiya resurslarini tejoychi samarali tizimlarni ishlab chiqish boʻyicha qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada sugʻorish tarmoqlarida suv sathi va sarfini oʻlchashda sezgirligi va aniqligi yuqori, suv va energiya resurslar tejamkorligini taʼminlovchi takomillashtirilgan raqamli nazorat qilish va oʻlchash tizimlarini yaratish zarurati mavjuddir. Respublikamizda suv xoʻjalik obyektlaridagi texnologik jarayonlarni raqamlashtirish uchun takomillashtirilgan raqamli qurilmalar tizimlarini yaratishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Bugungi ilmiy tadqiqotlar rivojidan maʼlumki, yuqorida bayon etilgan muammolarni hal qilishda ilgʻor innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida suv resurslaridan samarali foydalanish, suv olish jarayonida gidrotexnik inshootlar, gidrotexnik inshootlardagi zatvorlar, kanallar suv miqdorini aniq hisobini yuritishda zamonaviy datchiklardan foydalanishning texnologiyalarini takomillashtirish boʻyicha keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish boʻyicha alohida davlat dasturini amalga oshirish»<sup>1</sup> vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, suv xoʻjaligi inshootlarini loyihalash, barpo etish va ulardan unumli foydalanishda gidrotexnik inshootlardagi gidropostlarda suv sarfini hisoblashning tezkor aniqlash usullarini ishlab chiqishda gidravlika qonuniyatlarini tadqiq etish, inshootlarda suv sarfini hisoblashda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali suv miqdorini aniq baholash texnologiyalarini takomillashtirishga yoʻnaltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-son Farmoni “Oʻzbekiston Respublikasi suv xoʻjaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga moʻljallangan konsepsiyasi”da “suv xoʻjaligi obyektlarini (ichimlik va oqova suv tizimidan tashqari) modernizatsiya qilish va rivojlantirish, yirik suv

---

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmoni

xo‘jaligi obyektlarini boshqarishni raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirish, elektr energiyasi va boshqa resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish” vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan, mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish, sug‘orish tarmoqlarida iste’mol qilinayotgan elektr energiyasini kamaytirish, suv sarfining haqiqiy iste’mol miqdorini aniqlash uchun keng miqyosda avtomatik boshqarish va nazorat tizimlarini joriy etish, suv sathi va sarfi kabi kattaliklarni nazorat qilish va o‘lchashning innovatsion qurilmalari bilan gidrotexnika inshootlarini jihozlash, raqamli informatsion – o‘lchash tizimlarini joriy etishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma’lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Gidrotexnik inshootlardagi gidravlik jarayonlar, inshootlarda suv miqdorini monitoringi, o‘lchash va boshqarish muammolari bilan N.YE.Jukovskiy, A.D.Altshul, C.O.Silva, P.K.Swamee, N.Rajaratnam, E.Kubrak, J.S.Montes, G.Belaud, A.Yoosefdoost, J.Mohammed, M.Z.Gankin, I.F.Borodin, R.J.Baratov, E.J.Maxmudov, M.R.Bakiyev, A.M.Arifjanov, X.Fayziyev, V.Ya.Bochkaryev, M.F.Natalchuk, A.M.Fatxullayev, R.Xo‘jaqulov va boshqalar shug‘ullanishgan va ijobiy natijalarga erishilgan.

Gidrotexnik inshootlarni boshqarishni avtomatlashtirish, suv sarfini baholashda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va raqamlashtirishda turli nazorat qilish va boshqarish tizimlaridan foydalanish borasida J. Tel, A.L. Clemmens, J.Vanden-Broeck, J.S.Montes, J.F.Dulhoste, P.L.Daniel, D.B.Kraatz, A.M.Binnie, B.Suntaranont, R.C.Baker, M.Cushing, H.Eren, B.G.Liptak, G.Mahtabi, P.C.Erbisti, A.B.Andreychikov, V.Antonov, Z.Ahmad, Riaz Waqas, D.V.Gaskarov, A.I.Karyakin, A.U.Djalilov, S.S.Lopatin, A.YE.Urazev, V.X.Yasoveyev, S.F.Amirov, X.Z.Igamberdiyev, N.R.Yusupbekov, R.T.Gaziyeva va boshqalar o‘zlarining muhim hissalarini qo‘shishgan.

Gidrotexnik inshootlarda suvning miqdori, sarfi, sathi va boshqa gidravlik elementlarini o‘lchash, uzatish hamda boshqarishni raqamlashtirishda innovatsion qurilmalardan foydalanish, ekspluatatsiya sharoitida oqim harakati bilan bog‘liq omillarning nazorat va boshqaruv tizimlari parametrlariga ta’siri kabi masalalar yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №7-sonli “Raqamli texnologiyalar asosida innovatsion faoliyatni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi suv ta’minotida tejamkorlikga erishishni optimal loyihalashtirish, Raqamli texnologiyalar asosida gidrotexnika inshootlarining texnologik jaryonlarni boshqarish” (2021-2023), 598587-EPP-1-2018-EL-EPPKA2-CBHE-JP-ENV2 “ITEM” Matematikani innovatsion usulda o‘qitish loyihasi (2018-2022), “609564-EPP-1-2019-1-ELEPPKA2-CBHE-JP” (MechaUz) Innovatsion g‘oyalar va

raqamli texnologiyalar yordamida O‘zbekistonda bakalavr darajasini olish uchun mexatronika va robototexnikani modernizatsiya qilish loyihasi (2019-2023) mavzularidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** gidrotexnik inshootlar zatvorlari ostidan o‘tayotgan suv hisobini ko‘p funksiyali innovatsion qurilma (IMDMWCP innovative multifunctional device for measuring water calculation parameters)dan foydalanib raqamlashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

gidrotexnik inshootlarda suv sathi va sarfini nazorat qilish va o‘lchash usullari, texnik vositalar hamda o‘lchash qurilmalariga doir tadqiqotlarning tahlili;

kanallardagi gidrotexnik inshootlar yuqori va pastki byeflarida suv sathining hamda gidrotexnik zatvorlarga ta’sir etuvchi kuchlarning o‘zgarish qonuniyatlarini inobatga olib gidrotexnik zatvorlarni boshqarish va nazorat qilish tizimlarini ishlab chiqish;

tabiiy-dala sharoitida suv sathi va sarfini nazorat qilish va o‘lchashda ko‘p funksiyali intellektual datchigining xarakteristikalarini tadqiq etish va gidrotexnik inshootlar zatvorlaridagi suv hisobining gidravlik modelini takomillashtirish;

gidrotexnik inshootlar zatvorlaridagi suv sathi va sarfi nazoratini raqamlashtirish tizimining strukturaviy sxemasi, algoritmi hamda dasturiy vositasini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Qarshi magistral kanali irrigatsiya tizimlari boshqarmasiga qarashli Qarshi gidrouzeli olingan.

**Tadqiqotning predmetini** gidrotexnik inshootlar zatvori ostidan o‘tayotgan oqim harakatining gidravlik jarayonlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida matematik modellashtirish, gidravlika va gidrologiyada umum qabul qilingan uslublardan hamda algoritmlash, gidromexanikaning qonunlari asosida gidrotexnik inshootlarda suv hisobini amalga oshirish, dala tajribalari natijalariga ishlov berish, matematik statistika va sinalgan sonli usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

gidrotexnik inshootlardagi zatvorlarning harakat mexanizmini inobatga olib, suv hisobini raqamlashtirishda ko‘p funksiyali innovatsion qurilma (IMDMWCP) dan foydalanish taklif etilgan;

kanallardagi gidrotexnik inshootlar zatvorlariga ta’sir etuvchi kuchlarining o‘zgarishini inobatga olib gidrotexnik zatvorlarni boshqarish va nazorat qilish tizimlarini avtomatlashtirish usuli takomillashtirilgan;

kanallardagi inshootlarda vertikal harakatlanadigan zatvorlarning boshqarish mexanizmlari kinematikasi va byeflarni tutashtirish qonuniyatlarini inobatga olib suv sarfni nazorat qilishning gidravlik modeli ishlab chiqilgan;

gidrotexnik inshootlar zatvorlarida suv sathi va sarfi nazoratini raqamlashtirish tizimining strukturaviy sxemasi, algoritmi hamda dasturiy vositasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

gidrotexnik inshootlardagi vertikal harakatlanadigan zatvorlarda oqim sathining o'zgaruvchanligini inobatga olib suv hisobini amalga oshirish usuli ishlab chiqilgan;

gidrotexnik inshootalar zatvorlarida suv sathi va sarfini nazorat qilish va o'lchashning ko'p funksiyali innovatsion "aqlli" qurilma konstruksiyasi, inshootlarda suvni boshqarishning strukturaviy sxemasi ishlab chiqilgan;

inshootlarda suv miqdorini nazorat qilish va o'lchashni avtomatlashtirish usuli takomillashtirilgan;

gidrotexnik inshootlar zatvorlaridan o'tayotgan suv miqdorini baholashning raqamlashtirilgan texnologik tizimi tavsiya etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishlab chiqilgan usullarning gidromexanika qonunlariga mosligi, nazariy va amaliy tadqiqotlarning o'zaro adekvatligi, suv sathi va sarfini nazorat qilish va o'lchash qurilmasi yordamida eksperimental olingan natijalar solishtirganligida yaqinligi va uning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati gidrotexnik inshootlardagi zatvorlarning harakat mexanizmini inobatga olib suv hisobini raqamlashtirishda ko'p funksiyali innovatsion qurilma (IMDMWCP) dan foydalanishning asoslanganligi, kanallardagi gidrotexnik inshootlar zatvorlariga ta'sir etuvchi bosim kuchlarining o'zgarishini inobatga olib gidrotexnik zatvorlarni boshqarish va nazorat qilish tizimlari avtomatlashtirish usulining takomillashtirilganligi, inshootlarda vertikal harakatlanadigan zatvorlarni boshqarish mexanizmlarining kinematikasini va b'eflarni tutashtirish qonuniyatlarini inobatga olib, suv sarfini nazorat qilishning gidravlik modeli ishlab chiqilganligi, gidrotexnik inshootlar zatvorlarida suv sathi va sarfi nazoratini raqamlashtirish tizimining strukturaviy sxemasi, algoritmi hamda dasturiy vositasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati vertikal harakatlanadigan gidrotexnik zatvorlarni boshqarish uchun ko'p funksiyali innovatsion datchiklardan foydalanish tavsiya etilganligi, gidrotexnik inshootlarda suv miqdorining monitoringini amalga oshirishda elektr energiya iste'molini ikki baravargacha kamaytirishga erishilganligi, gidrotexnik inshootalar zatvorlarida suv sathi va sarfini nazorat qilish va o'lchashning ko'p funksiyali innovatsion "aqlli" qurilma konstruksiyasi va suvni boshqarishning strukturaviy sxemasi ishlab chiqilganligi, inshootlarda suv miqdorini nazorat qilish va o'lchashni avtomatlashtirish usuli takomillashtirilganligi hisobiga yuqori aniqlikka erishilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Gidrotexnik inshootlar zatvorlaridan o'tayotgan suv hisobini raqamlashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

kanallardagi inshootlarda vertikal harakatlanadigan zatvorlar boshqarish mexanizmlarining kinematikasi va byeflarni tutashtirish qonuniyatlarini inobatga olib suv sarfini nazorat qilishning gidravlik hisoblash usuli Qashqadaryo viloyati Qarshi magistral kanali irrigatsiya tizimi boshqarmasiga qarashli Qarshi gidrouzelida amaliyotga joriy etilgan (Suv xo'jaligi vazirligining 2023-yil 25-fevral

03/26-629-sonli ma'lumotnomasi). Natijada gidrotexnik inshootlardan o'tayotgan suv miqdorini aniq hisoblash imkoniyati yaratilgan;

gidrotexnik zatvorlarni boshqarish uchun ko'p funksiyali innovatsion qurilma Qashqadaryo viloyati Qarshi magistral kanali irrigatsiya tizimi boshqarmasiga qarashli Pistali kanalida amaliyotga joriy etilgan (Suv xo'jaligi vazirligining 2023-yil 25-fevral 03/26-629-sonli ma'lumotnomasi). Natijada suv miqdorini tizimli boshqarish hisobiga ekinlarni vegetatsiya davrida sug'orishda 1 gektar yer uchun 92 m<sup>3</sup> gacha suv miqdori tejalishiga erishilgan;

gidrotexnik inshootlarda suv sarfini nazorat qilish va o'lchash tizimining avtomatlashtirilgan usuli Qashqadaryo viloyatidagi Oqsuv irrigatsiya tizimi boshqarmasiga qarashli Oqsuv gidrouzelida amaliyotga joriy etilgan. (Suv xo'jaligi vazirligining 2023-yil 25-fevral 03/26-629-son ma'lumotnomasi). Natijada mavjud nazorat va o'lchash tizimlariga nisbatan elektr energiyasi iste'molini ikki baravargacha kamaytirish va suv sarfini o'lchash diapazonlarini kengaytirishga imkon yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro, respublika va institut miqyosidagi anjumanlarida muhokama qilingan va ma'qullangan, jumladan 3 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan, 2 ta maqola Scopus bazasidagi, jurnal va anjuman materiallarida chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligidan 2 ta EHM dasturlari uchun guvohnomalar olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari hamda obyekt va predmetlari asoslanib, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyatlari ochib berilib, tadqiqot natijalarini joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Gidrotexnik inshoot zatvorlari ostidan o'tayotgan suv hisobini raqamlashtirishga doir tadqiqotlar tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida gidrotexnik inshootlarda suv sathi va sarfini o'lchash usullari, gidrotexnik inshootlarning gidravlik parametrlarini suv sarfi va sathining o'lchash ishlariga

ta'sirini asoslash va suv hisobini raqamlashtirishga doir tadqiqot usullari tahlil qilingan.

Bugungi kunda dolzarb masala bo'lib qolayotgan suvni hisobga olish, barcha irrigatsion tarmoqlar, shu jumladan magistral, xo'jaliklararo va xo'jalik ichidagi sug'orish kanallarini ma'lum turdagi suv o'lchash inshootlari bilan jihozlashni amalga oshirish ishlari holati bo'yicha ma'lumotlar tahlil etilgan.

Gidrotexnik inshootlar zatvorlaridan o'tayotgan suv sathi va sarfini nazorat qilish va o'lchash tizimi mavjud texnik vositalarning o'lchash aniqligi va sezgirligi pastligi, texnik xarakteristikalarining adaptiv rostdash funksiyasiga ega emasligi, zamonaviy aloqa tizimlariga ulanish imkoniyati mavjud emasligi hamda mavjud suv o'lchash moslamalari texnologik jarayonlarining talablariga javob bermasligi aniqlangan.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, gidrotexnik inshootlarda suv sathini o'lchashda gidravlik jarayonlar to'la inobatga olinmasdan avtomatlashtirilgan va raqamlashtirilgan holatlarini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Hozirgi kunda respublikamiz hududida foydalanilyotgan Smart water qurilmasi ham faqatgina gidrotexnik inshootlardagi gidropostlarda suv sathini o'lchash vazifalarini bajarish bilan kifoyalangan. Inshoot oldidagi suv sathini boshqarish va darvozani ochilishi yoki pastki byeflardagi suv sathlari, darvozani ko'tarishdagi jarayonlar inobatga olinmagan.

Tahlillar natijasida ma'lum bo'ldiki, gidrotexnik inshootlarda suv hisobini yuritishda inshootlar oldidagi suv sathi, darvozaga ta'sir etuvchi gidrostatik va gidrodinamik kuchlar, pastki byefdagi suv sathini, darvozani ko'tarishdagi energetik holatlarni hisobga olgan holda "zamonaviy innovatsion qurilma"larning yagona majmua holida ishlab chiqish zarurligini ko'rsatmoqda.

Gidrotexnik inshootlar zatvorlaridagi suv sathi va sarfini nazoratini raqamlashtirish oqimning gidravlik parametrlarini o'zgarishini inobatga olib hisoblash usullarini takomillashtirish yangi yondashuv va tadqiqotlarni talab etmoqda. Yuqoridagi tahlillar asosida ishning maqsad va vazifalari belgilab olingan.

Dissertatsiya ishining **"Suv sathi va sarfini nazorat qilish va o'lchashni modellashtirish"** deb nomlangan ikkinchi bobida kanallardagi gidrotexnik inshootlardagi zatvorlar ostidan o'tayotgan suv miqdorini va suv sathini nazorat qilish va o'lchash usullari, zatvorlar ostidan o'tayotgan suv sarfini monitoringini inshootdagi gidravlik jarayonlarni baholashda zatvor ostidan suvning erkin o'tishi, to'g'ri to'rtburchakli zatvor ostidan ko'milgan holda o'tishi, vertikal harakatlanadigan gidrotexnik zatvorning iste'mol quvvati, suv sathi va sarfini intellektual datchiklardan foydalanib nazorat qilish va o'lchash tizimi, iste'mol quvvati va intellektual datchikning birlamchi o'zgartirgichi statik va dinamik xarakteristikalari keltirilgan. Kanallarda suv sathi va sarfini o'lchash hamda nazorat qilishda elektromexanik sistemalarga ta'sir qiluvchi omillar, shuningdek suv sathi va sarfini nazorat qilish va o'lchash uchun energiya tejamkor texnik vositalarni ishlab chiqish, o'lchash aniqligini oshirish kabi holatlarini inobatga olib amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Gidrotexnik inshootlarda o'rnatilgan zatvorlarda o'tayotgan suv miqdorini baholashda gidrotexnik zatvorga ta'sir etayotgan bosim kuchining ta'siri, qanday konstruksiyaga ega bo'lgan zatvor suv sathini hamda sarfini o'lchashda va nazorat qilishda qulay bo'lishi sharoitlari baholangan.

Ma'lumki, suv taqsimlash va yetkazib berish kanallari juda ko'p tarmoqqa ega bo'lib, ularda o'rnatilgan gidrotexnik inshootlarda gidravlik jarayonlar ancha murakkab. Shuning uchun bunday kanallarda suv resurslari isrofini kamaytirish, aniq monitoringini olib borish esa yangi innovatsion nazorat qilish va o'lchash tizimini, intellektual qurilmalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Bunday adaptiv intellektual datchiklar bevosita gidrotexnik inshootga o'rnatiladi. Odatda respublikamiz sug'orish tizimlarimizda ochiq suv taqsimlash kanallarida suv sathini o'lchash va rostlash maqsadida to'g'ri to'rtburchak shaklidagi vertikal harakatlanadigan gidrotexnik zatvorlar keng qo'llaniladi.

Vertikal gidrotexnik zatvorlardan o'tayotgan suv miqdorini baholash uchun zamonaviy raqamlashtirilgan tizimlardan foydalanishda oqim gidravlikasi bilan bog'langan holda amalga oshirish lozim bo'ladi. Zatvorlar harakatini tizimli boshqarishda ularning harakat kinematikasini baholash lozim bo'ladi. Zatvorlarning ochilib yopilishi hisobiga gidrotexnik inshootlarda suv sarfi boshqariladi. Suv tomonidan yassi zatvorlarga ta'sir etuvchi bosim kuchi statsionar holatda suv sathiga va zatvor konstruksiyasiga bog'liq. Zatvorni harakatga keltirilganda bosim kuchini aniqlash zatvorning ochilishiga bog'liq bo'ladi. Ayni damda zatvorning ochilishi va uning harakat trayektoriyasi zatvordan o'tayotgan suv miqdorini belgilashga asos bo'ladi.

Gidrotexnik inshootlardagi zatvorlar ostidan o'tayotgan suv sarfini baholashda ikki xil holat, ya'ni zatvor ostidan suvning erkin o'tishi va ko'milgan holatda o'tishi alohida ahamiyatga ega.

Yuqorida bayon etilganlarni inobatga olib gidrotexnik inshootlarda o'rnatilgan zatvorlar ostidan o'tayotgan suv sarfini baholashni raqamlashtirish quyidagi gidravlik model bo'yicha amalga oshiriladi.

To'g'ri to'rtburchakli zatvor ostidan suvning erkin o'tishida suv oqimining miqdoriga pastki byefdagi oqim sathi ta'sir qilmasa, oqib chiqish erkin hisoblanadi (1-rasm).

Zatvor ostidan suv erkin o'tayotgan holatda suv sarfi quyidagicha aniqlanadi:

$$Q = \mu ab \sqrt{2g(H_0 - \varepsilon a)} \quad (1)$$

bu yerda:  $Q$  - suv sarfi;  $H_0 = H + \frac{\alpha g_0^2}{2g}$  - to'la napor;  $H$  - geometrik napor;

$a$  - zatvorning ochilish balandligi;  $b$  - zatvor eni;  $g_0$  - zatvor oldidagi oqim tezligi;  $\varepsilon$  - siqilish koeffitsiyenti;  $\mu$  - sarf koeffitsiyenti;  $g$  - erkin tushish tezlanishi;

Bu jarayonda oqim va inshootning parametrlari ma'lum bo'lganida asosiy muammo sarf koeffitsiyentini aniqlash bo'lib qoladi. Zatvor ostidan suvning ko'milgan holda o'tganda suv sarfini aniqlash erkin o'tishga nisbatan ancha murakkablashadi, ya'ni ko'proq parametrlarga bog'liq bo'ladi. To'g'ri


to'rtburchakli zatvor ostidan o'tayotgan suvning ko'milganlik holati ikki turga bo'linadi: to'liq ko'milgan va to'liq ko'milmagan.

To'liq ko'milgan holat uchun zatvor ostidan o'tayotgan suv sarfi quyidagicha aniqlangan:

$$Q = \mu ab\sqrt{2gZ_0} \quad (2)$$


bu yerda:  $Z_0$  - byeflardagi sathlar farqi;

Bu holatda ham oqim sarfini aniq baholash uchun sarf koeffitsiyentini aniqlash talab etiladi.



**1-rasm To'g'ri burchakli zatvor ostidan suvning erkin o'tishi**

To'g'ri to'rtburchakli zatvor ostidan suvning to'liq ko'milmagan (2-rasm) holatda o'tganda suv sarfini aniqlash gidravlikada qabul qilingan usullardan foydalanib amalga oshirilgan.



**2-rasm. To'g'ri burchakli zatvor ostidan suvning to'liq ko'milmagan holda o'tishi**

Zatvor ostidan o'tayotgan sarfni aniqlash uchun (2-rasm) 1-1 va 2-2 kesimlar uchun D.Bernulli tenglamasini yozib quyidagi ifoda keltirilgan:

$$Q = \mu ab \sqrt{2g(H_0 - h_z)} \quad (3)$$

Keltirilgan ifodadan to'liq foydalanishda ma'lum murakkabliklar mavjud bo'lib, bu pastki byefdagi  $h_z$  - ni aniqlash bilan bog'liq.


Byeflarni tutashtirish nazariyasiga asoslanib 2-2- va 3-3 kesimlar uchun harakat miqdorining o'zgarishi haqidagi teoremani qo'llab  $h_z$  ni aniqlash uchun quyidagi analitik ifoda keltirilgan.

$$h_z = \left[ \frac{1}{2} A + \sqrt{\frac{1}{4} A^2 - A \frac{H_0}{h_p} + 1} \right] h_p. \quad (4)$$

bu yerda:  $A = 4\varphi^2 \left( 1 - \frac{\varepsilon a}{h_p} \right) \frac{\varepsilon a}{h_p}$ ;  $h_p$  - pastki b'ef suv sathi;  $\varphi$  - tezlik koeffitsiyenti.

Yuqorida bayon etilgan gidravlik model asosida shuni xulosa qilish mumkin, gidrotexnik inshootlardagi zatvorlar ostidan o'tayotgan suv miqdorining monitoringini raqamlashirish asosida amalga oshirish uchun tavsiya etilgan formulalardan sarf koeffitsiyentini tajribada baholash lozim bo'ladi.

Gidrotexnik inshootlardan o'tayotgan suv miqdori monitoringini raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirishda jarayonni belgilovchi asosiy o'zgaruvchan omillar sifatida inshootning yuqori va pastki byefidagi suv sathining qiymati va darvoza ochilishi balandligi qabul qilingan. Shu parametrlar miqdorining o'zgarishini aniqlashni raqamlashtirish asosida innovatsion ultratovushli va induksion qurilmalarni o'rnatish sxemasi va ishlash tamoyili ishlab chiqilgan (3-rasm). Gidrotexnik inshoot zatvorlarida suv sathi va sarfini nazorat qilish va o'lchashning boshqarish tizimi strukturaviy sxemasi ishlab chiqilgan.



**3-rasm. Gidrotexnik inshoot zatvorlari ostidan o'tayotgan suv miqdorini boshqarish tizimining strukturaviy sxemasi:**

1- vertikal harakatlanadigan yassi zatvor; 2- zatvor ochilishi balandligini qayd qiluvchi moslama; 3-nazorat qurilmasi; 4-boshqaruv elementi; 5- natijalarni qayd qiluvchi ekran, 6-sath datchigi.


Gidrotexnik inshootlardagi zatvorlar ostidan o‘tayotgan suv sarfini aniqlashni raqamlashtirish uchun yuqorida keltirilgan gidravlik model va innovatsion texnologiyalarga asoslangan suv miqdorini boshqarish tizimining strukturaviy sxemasini qo‘llagan holda amalga oshirish tavsiya etilgan.

Dissertasiya ishining **“Gidrotexnik inshootlarda suv resurslari monitoringini amalga oshirishda tabiiy dala sharoitidagi tadqiqotlar”** deb nomlangan uchinchi bobida gidrotexnik inshootlardagi zatvorlar ostidan o‘tayotgan suv sarfini tabiiy dala sharoitida tadqiqot obyektida olib borilgan izlanishlar natijalari keltirilgan.

Tadqiqotlar tabiiy dala sharoitida Qarshi gidrouzelidagi Pistali kanaliga suv oluvchi inshootida olib borilgan. Qarshi gidrouzeli Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridan 6 km shimoli-sharqiy tomonda Qashqadaryo daryosida joylashgan bo‘lib, 1960-1965 yillarda qurilib ishga tushirilgan (4-rasm). Gidrouzel 3-toifali muhim ahamiyatga ega obyekt hisoblanadi. Gidrouzelning suv o‘tkazish qobiliyati 550 m<sup>3</sup>/sek. Qarshi gidrouzeli “O‘ng qirg‘oq”, “Chap qirg‘oq”, “Pistali” va “Qarshi tarmoq” kanallarini bir meyorda suv bilan ta‘minlaydi (5-rasm). Ushbu kanallar Qarshi tumani, Qarshi shahri va Koson tumanidagi jami 52 ming gektar maydondagi qishloq xo‘jaligi ekinlarini va aholi tomorqalarini suv bilan ta‘minlaydi.

Pistali kanaliga suv taqsimlovchi inshootining suv o‘tkazish qobiliyati 15 m<sup>3</sup>/sek. Suv taqsimlovchi inshootda ikkita 3,2x2,5 m o‘lchamdagi yassi zatvorlar o‘rnatilgan. Bu zatvorlarni ko‘targich mexanizmlari elektrlashtirilgan bo‘lib, elektr dvigatellar yordamida ko‘tarib tushiriladi.

Tabiiy dala sharoitida 2020-2023 yillar davomida tadqiqotlar olib borildi (6-rasm). Tadqiqotlarda zatvorlarning har xil ochilish balandliklarida suv sarfi an‘anaviy usulda va tavsiya etilgan innovatsion qurilmalarda o‘lchandi.



**4-rasm. Qarshi gidrouzelining sun‘iy yo‘ldoshdan ko‘rinishi**




**5-rasm. Qarshi gidrouzelining umumiy ko‘rinishi**



**6-rasm. Qarshi gidrouzeli Pistali kanalida suv sathini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar**

Tadqiqot yillari davomida to'plangan ma'lumotlar matematik statistika usullari asosida tahlil etildi (6-rasm). Olib borilgan tadqiqotlar bo'yicha gidrotexnik inshootlardagi zatvorlar ostidan o'tayotgan suv sarfini hisoblashda sarf koeffitsiyentini aniqlash uchun yangi bog'lanish tavsiya etildi (korrelyasiya koeffitsiyenti  $r^2 = 0.93$  ni tashkil etdi):

$$\mu = 2,06 \exp \left\{ -3.84 \left( 1 - \frac{a}{H} \right) \left( 1 - \frac{h_p}{H} \right) \right\} \quad (5)$$




**7-rasm. Dala tadqiqoti natijalarining statistik tahlili**

Yuqorida keltirilgan (3) formuladan foydalanib suv sarfini aniqlash uchun quyidagi bog'lanish tavsiya etilgan:

$$Q = 2,06 \exp \left\{ -3.84 \left( 1 - \frac{a}{H} \right) \left( 1 - \frac{h_p}{H} \right) \right\} \cdot a \cdot b \sqrt{2g \cdot H_0} \quad (6)$$

Tavsiya etilgan suv sarfini hisoblash formulasining ishonchligini baholash uchun boshqa mualliflarning formulalari bilan qiyosiy baholangan va solishtirish natijalari grafikda keltirilgan (8-rasm). Solishtirish natijalari tavsiya etilgan formula bo'yicha hisoblangan qiymatlar o'lchangan qiymatlarga mos kelishini ko'rsatgan va suv hisobini yuritishda foydalanish mumkinligi asoslangan.




**8-rasm. Zatvor ko‘tarilishining sarfga bog‘liqlik grafigi**

Natijada gidrotexnik inshootlarda b‘eflarni tutashtirish nazariyasiga va tabiiy dala tadqiqotlari asosida zatvorlar ostidan o‘tayotgan suv sarfini aniqlash uchun hisoblash formulasi tavsiya etilgan va olingan natijalar gidrotexnik inshootlarda suv miqdorining monitoringini amalga oshirishni raqamlashtirishda asosiy omil sifatida foydalanilgan va suv miqdorini yuqori aniqlikda va tezkor hisoblash imkoniyati yaratilgan.

Dissertasiyaning “**Gidrotexnik inshootlarda suv miqdorini nazorat qilish usullari, algoritmlari va raqamlashtirishning texnik vositalari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida gidrotexnik inshoot zatvorlaridan o‘tayotgan suv hisobini o‘lchovchi ko‘p funksiyali innovatsion qurilmadan foydalanib jarayonni raqamlashtirish usullari, texnik vositalari va ishlash prinsipi bayon etilgan. Suv hisobini o‘lchovchi ko‘p funksiyali innovatsion qurilmalarning analog–raqamli o‘zgartirgichlarining (ARO‘) aniqligiga ta’sir qiluvchi omillar, suv sarfi va sathini boshqarish algoritmi, boshqarishda elektr yuritmalarning yuklanishini va nazorat qilish va boshqarishda raqamli texnik vositalarini suv hisobini gidravlik modeliga bog‘liqliklari keltirilgan.

Hozirgi kunda zamonaviy axborot o‘lchash texnikasining asosiy elementlari bu analog-raqamli va raqamli-analog o‘zgartirgichlar (RAO‘) hisoblanadi. Chunki ishlab chiqilgan zamonaviy ko‘p funksiyali innovatsion qurilmaning asosiy metrologik xarakteristikalari (o‘lchash xatoligi, ruxsat etilgan qiymati, ishonchliligi, dinamik xatoligi va h.k.) shu elementlarning texnik ko‘rsatkichlari bilan aniqlanadi.


Hozirgi kunda raqamli texnika vositalarining deyarli barcha qismi ichki kuchlanish manbai 5 V dan foydalanadi. Bu kuchlanish odatda tayanch kuchlanish deb ataladi va turg‘un bo‘lishi shart. Aks holda manba kuchlanishi amplitudasining tebranishi qo‘shimcha xatolikni yuzaga keltiradi. Tavsiya etilgan qurilma Atmega 32 mikrokontrolleri asosida qurilgan bo‘lib, ichki tayanch kuchlanishi 5 V dan iborat. Quyidagi 9-rasmda Atmega 32 asosida tuzilgan platformasining umumiy ko‘rinishi keltirilgan.



**9-rasm. Suv sathi va sarfini qurilma platformasida raqamli signalga o‘zgartirishning sxemasi:**


*1-unifikatsiyalangan signal; 2-raqamli analog o‘zgartgich; 3-elekr manbai;4- sath datchigi; 5- signal kuchaytirgich; 6- aylanishlarni qayd qilish datchigi; 7- analog raqamli o‘zgartgich.*

Qurilmaning strukturaviy sxemasidan ma’lumki, gidrotexnik zatvor kardanining aylanishlarini qayd qiluvchi datchigi orqali kuchlanishga va o‘zgartkichining elektr qarshiligiga, so‘ngra esa analog kuchlanishga o‘zgartiriladi. Qurilma platformasida analog signal 10 bitli raqamli signalga va 0÷1023 sonli kodga o‘zgartiriladi.



**10-rasm. Gidrotexnik inshoot zatvorlaridan o‘tayotgan suv hisobini o‘lchovchi ko‘p funksiyali innovatsion qurilmasining prinsipial sxemasi**

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida gidrotexnik inshoot zatvorlaridan o'tayotgan suv hisobini o'lchovchi ko'p funksiyali innovatsion qurilmaning strukturaviy sxemasi ishlab chiqilgan (10-rasm).



11-rasm. Zatvor ostidan o'tayotgan suv sarfini hisoblash algoritmining blok sxemasi

Gidrotexnik inshootlarda suv sarfini avtomatik nazorat qilishda zatvorlar harakatini boshqarishda zatvorga ta'sir etuvchi bosim kuchi hisobini aniqlash lozim bo'ladi. Gidrotexnik inshootdagi zatvorning harakati davomida ta'sir etuvchi bosim kuchining miqdori o'zgaruvchan bo'ladi.

Harakat miqdorining o'zgarish haqidagi teoremadan foydalanib suvning bosim kuchini aniqlash uchun quyidagi ifoda keltirilgan:

$$P = \frac{1}{2} \gamma (H - \varepsilon \cdot a) [H + \varepsilon \cdot a (1 - 4\varphi^2 c)]; \quad (7)$$

bu yerda:  $P$  - zatvorga ta'sir etayotgan bosim kuchi;  $\gamma$  – suvning solishtirma og'irligi;

Vertikal harakatlanadigan yassi gidrotexnik zatvorning iste'mol quvvati esa quyidagicha aniqlangan:

$$N = k \sum F \vartheta \quad (8)$$

bu yerda:  $\sum F = G_{zatv} + f \cdot P$ ;  $G_{zatv}$  - zatvorning og'irligi;  $f$  - ishqalanish koeffitsiyenti;  $k$ - zahira koeffitsiyenti;  $\vartheta$  - zatvorning harakatlanish tezligi;

Yuqorida keltirilgan formulalar asosida zatvor harakati davomida sarflanadigan elektr quvvati baholangan.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida jarayonning to'liq hisobini amalga oshirishni ta'minlaydigan algoritm yaratilgan va hisoblash dasturi ishlab chiqilgan (11-rasm). Ishlab chiqilgan EHM dasturiga Intellektual mulk agentligining guvohnomasi olingan (Guvohnoma №DGU 15884).

Gidrotexnik inshootlarga o'rnatilgan zatvorlarni boshqarish orqali ulardan o'tayotgan suv miqdorini tartibga solish mumkinligi asoslangan.

Suv miqdorini tartibga solishda raqamlashtirish va avtomatlashtirish uchun gidrotexnik inshoot zatvorlarining ish rejimini taklif qilingan gidravlik modellarini qurilma dasturi kodiga kiritish orqali tartibga solish tavsiya qilingan va suv sarfini avtomatik nazorat qilish va rostdash sxemasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining iqtisodiy samaradorligi baholangan. Tadqiqot natijalarining ijtimoiy samaradorligi gidrotexnik inshootlarda suv hisobini yuritishda energiya tejamkorlikka erishiladi va bu asosda yashil energetikani rivojlantirishga xizmat qiladi. Iste'molchilarga uzatiladigan suv miqdorini aniq va tezkor aniqlash orqali o'z vaqtida va kerakli miqdorda suv yetkazib berish imkoniyati yaratilgan.

Gidrotexnik inshootlarda suv sarfini aniqlashda kam ishchi kuchi, kam energiya sarflanishi, hamda jarayonni raqamlashtirishda ma'lumotlar aniqligining oshganligi, suv taqsimotining tezkor amalga oshirilganligi, tavsiya etilayotgan mahalliy innovatsion qurilma ishlab chiqilganligi hisobiga erishilgan.

Ishlab chiqilgan ko'p funksiyali innovatsion qurilma Qarshi gidrouzeli, Oqsuv gidrouzeli, Qamashi suv omboridagi gidrotexnik inshootlardagi zatvorlar ostidan chiqayotgan suv sarfini va sathini aniqlashda foydalanishga tavsiya etildi. Suv sarfini aniq va tezkor bajarilishi hisobiga iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

## XULOSALAR

**“Gidrotexnik inshootlar zatvorlaridan o'tayotgan suv hisobini raqamlashtirish”** mavzusidagi texnika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) dissertasiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Hidrotexnik inshootlarning boshqaruv, nazorat va o'lchash tizimlarini tahlil etish asosida inshootlarda suv taqsimlash inshootlarini avtonom manbadan elektr energiya bilan ta'minlanadigan kichik quvvatli, innovatsion, ishonchli nazorat va o'lchash tizimini ishlab chiqish zaruriyati asoslandi.

2. Hidrotexnik inshootlar zatvorlarida yuqori va pastki byeflarida suv sathi va sarfining vertikal harakatlanadigan yassi gidrotexnik zatvor ko'tarilishiga bog'liq ravishda aniqlash formulasi tavsiya etildi. Natijada innovatsion o'lchash qurilmasining o'lchash diapazonini kengaytirish va sodda konstruksiyaga ega o'lchash qurilmalarini ishlab chiqish, gidrotexnik inshoot zatvorlarining ish rejimlarini raqamlashtirish imkoniyati yaratildi.

3. Tabiiy dala sharoitida o'tkazilgan tadqiqotlar asosida gidrotexnik inshootlar zatvorlari ostidan o'tayotgan suv sarfini baholash usuli takomillashtirildi. Natijada suv hisobini yuqori aniqlikda tez baholash imkoniyati yaratildi.

4. Hidrotexnik inshootlar zatvorlarida suv sathi va sarfini nazorat qilish va o'lchash tizimining strukturaviy sxemasi ishlab chiqildi. Hidrotexnik inshootlar zatvorlarining gidravlik modeli, nazorat qilish va o'lchash algoritmi, yuqori aniqlik va sezgirlikka ega ko'p funksiyali innovatsion qurilmasining (IMDMWCP - innovative multifunctional device for measuring water calculation parameters) konstruksiyasi ishlab chiqilgan. Bu esa suv hisobini raqamlashtirish imkoniyati yaratildi.

5. Hidrotexnik inshootlar zatvorlarida suv sathi va sarfini nazorat qilish va o'lchash uchun ishlab chiqilgan innovatsion qurilma C++ dasturida ishlaydigan dasturiy ta'minot bilan ta'minlangan va dastur uchun intellektual mulk agentligining guvohnomasi olingan.

Natijada vertikal harakatlanadigan zatvorlarda suv sathi va sarfini nazorat qilish va o'lchash uchun ishlab chiqilgan innovatsion tizimlar iste'mol qiladigan elektr quvvati mavjud tizimlar iste'mol qiladigan quvvatga nisbatan ikki baravar kamligiga erishildi.

6. Hidrotexnik inshootlar zatvorlaridan o'tayotgan suv hisobini raqamlashtirish uchun ishlab chiqilgan ko'p funksiyali innovatsion o'lchash qurilmasi qator xalqaro va respublika miqyosidagi yarmarkalarda namoyish etilib, yuqori baholandi va tegishli sertifikatlar olindi. Natijada suv xo'jaligi obyektlarini raqamlashtirish hisobiga suv va energiya resurslarini tejashga erishildi.

7. Tadqiqot ishining iqtisodiy samaradorligiga jarayonni raqamlashtirishda ma'lumotlarning aniqligi oshganligi, suv taqsimotining tezkor amalga oshirilganligi, hamda mahalliy innovatsion qurilma ishlab chiqilganligi hisobiga erishildi.

Ishlab chiqilgan ko'p funksiyali innovatsion qurilma Qarshi gidrouzeli, Oqsuv gidrouzeli, Qamashi suv omboridagi gidrotexnik inshootlardagi zatvorlari ostidan chiqayotgan suv sarfini va sathini aniqlashda foydalanishga tavsiya etildi. Suv sarfini aniq va tezkor bajarilishi hisobiga iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.04/30.04.2021.Т.111.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ ИНЖЕНЕРНО-  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

---

**КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

**ТОЖИБОВ СУХРОБХОН ЖАЪФАР УГЛИ**

**ЦИФРОВИЗАЦИЯ УЧЁТА ВОДЫ, ПРОХОДЯЩЕЙ ЧЕРЕЗ ЗАТВОРЫ  
ГИДРОТЕХНИЧЕСКИХ СООРУЖЕНИЙ**

**05.09.07- Гидравлика и инженерная гидрология**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Карши– 2023**

**Тема диссертации доктора философии по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за В2021.1.PhD/T2161**

Диссертация выполнена в Каршинском инженерно-экономическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу ([www.qmii.uz](http://www.qmii.uz)) и на Информационном-образовательном портале «Ziynet» по адресу ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Арифжанов Айбек Мухамеджанович**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Садиев Умиджон Абдусаматович**  
доктор философии по техническим наукам, доцент

**Файзиев Хомитхон**  
доктор технических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Наманганский инженерно-строительный институт**

Защита диссертации состоится «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года в \_\_\_\_\_ часов на заседании научного совета PhD.04/30.04.2021.T.111.04 при Каршинском инженерно-экономическом институте (Адрес: 180100, г.Карши, пр. Мустакиллик, д. 225. Тел.: (+99875)-221-09-23; e-mail: [qmii@qmii.uz](mailto:qmii@qmii.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского инженерно-экономического института (зарегистрировано № \_\_\_\_\_). Адрес: 180100, Карши, пр. Мустакиллик, 225. Тел (+99875) 221-09-23.

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года.  
(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_\_ от «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года).

**С.С.Эшев**

Председатель научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

**А.Н.Хазратов**

Учёный секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.ф.т.н., доцент

**Р.Хужакулов**

Председатель научного семинара  
при научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии)

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В мире в последнее время в целях эффективного использования<sup>2</sup> водных и энергетических ресурсов, контроля их качества и цифровизации отрасли особое внимание уделяется созданию, а также совершенствованию современных технических средств. Создание цифровых датчиков, отвечающих требованиям технологических процессов измерения уровня и расхода воды в отдельных оросительных сетях является одним из важных проблем. В связи с этим большое значение имеет разработка многофункциональных инновационных устройств по контролю и измерению уровня и расхода воды в оросительных сетях и гидроузлах.

В мире проводятся ряд научно-исследовательских работ по снижению себестоимости технических средств, улучшению их технических характеристик, разработке эффективных систем по экономии водных и энергетических ресурсов при цифровизации управления и контроле гидротехнических сооружений. В этой связи возникает необходимость создания усовершенствованных цифровых контрольно-измерительных систем, обладающих высокой чувствительностью и точностью измерения уровня и расхода воды в оросительных сетях, обеспечивающих экономию водных и энергетических ресурсов. В нашей республике уделяется большое внимание созданию усовершенствованных систем цифровых устройств для цифровизации технологических процессов на водохозяйственных объектах. Из развития современных научных исследований известно, что широкое использование передовых инновационных технологий при решении вышеперечисленных проблем является одной из актуальных задач.

В рамках реформ, реализуемых в республике, принимаются широкомасштабные меры по эффективному использованию водных ресурсов, совершенствованию технологий использования современных датчиков для ведения точного учета количества воды в процессе забора через гидротехнических сооружений, затворов в гидротехнических сооружениях и в каналах. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, в том числе, намечены задачи «коренного реформирования системы управления водными ресурсами и реализации отдельной государственной программы по водному хозяйству»<sup>1</sup>. При реализации этих задач, в частности, при проектировании, строительстве и эффективном использовании водохозяйственных сооружений, при разработке методов оперативного определения расхода воды в гидростаях гидротехнических сооружений, одной из важных задач является проведение научно – исследовательских работ, направленных на совершенствование технологий точной оценки

---

<sup>1</sup> Указу Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60. СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА 2022 — 2026 ГОДЫ.

качества воды путем внедрения инновационных технологий расчета расхода воды в сооружениях.

В Указе Президента от 10 июля 2020 года № УП-6024 «Об утверждении концепции развития водного хозяйства Республики Узбекистан на 2020 - 2030 годы» намечены задачи по “модернизацию и развитие объектов водного хозяйства (за исключением питьевой воды и системы сточных вод), автоматизацию управления крупными объектами водного хозяйства на основе цифровых технологий, широкое внедрение современных технологий, позволяющих экономить электроэнергию и другие ресурсы, широкое привлечение в сферу иностранных инвестиций, а также обеспечение целенаправленного и эффективного использования выделяемых средств”. Данное диссертационное исследование в определенной мере служит для осуществления этих задач, в том числе эффективному использованию существующих водных ресурсов, снижению потребления электроэнергии в ирригационных сетях, внедрению крупномасштабного автоматического управления и контроля систем в целях определения фактического водопотребления, оснащению гидротехнических сооружений инновационными приборами для контроля и измерения уровня и расхода воды, внедрению цифровых информационно-измерительных систем.

**Соответствие исследований основным приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

